

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11176460>

PAHLAVON MAHMUD HAYOTI VA FAOLIYATI

Matkarimova Nargiza Botirovna

“Ichan-Qal’ा” davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada futuvvat-juvonmardlik tariqatining ulug‘ peshvolaridan biri, fors tilida ijod qilgan, po ‘stindo‘zlik, telpakdo‘zlik, bilan shug‘ullangan Pahlavon Mahmud haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Pahlavon Mahmud, Umar Xayyom, Piryorvali, Shayx Muxtor vali, telpakdo‘z, To‘xtasin Jalolov, Muinzoda, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilov.

LIFE AND ACTIVITY OF PAHLAVON MAHMUD

ABSTRACT

This article provides brief information about Pahlavon Mahmud, one of the great leaders of the Futuvvat-juvanmard sect, who wrote in Persian, was engaged in leatherwork and leatherwork.

Keywords: Pahlavon Mahmud, Umar Khayyam, Piryorvali, Sheikh Mukhtar vali, Telpakdoz, Tokhtasin Jalalov, Muinzada, Vasfi, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilov.

XII asr oxiri XIII asr boshida xorazmshohlar davlati musulmon dunyosida qudratli mamlakatlar qatorida bo‘lgan. O‘sha paytlarda uning poytaxti bo‘lgan Urganch shahrining aholisi ikki million nafardan ortiqni tashkil qilar edi. Shahar shu darajada ulkan va qudratli bo‘lishiga qaramay mog‘ullar istilosidan keyin vayronaga aylanib qoldi. Mog‘ullar Amudaryoning suvi orqali Urganch shahrini suvgaga bostirdilar.

Eng nodir madaniy meros yodgorliklari, turli fan sohalariga doir bo‘lgan minglagan qo‘lyozma kitoblar saqlanayotgan kutubxonalar yo‘qotildi. Shaharning barcha aholisi qatl qilindi, olimlar, usta hunarmandlar asir qilib olib ketildi. Omon qolganlarning ham endi bu shaharda yashashlariga imkoniyat qolmadi.

O‘sha vaqtida shaharda yashagan po‘stindo‘z hunarmand Piryorvali o‘zining homilador xotini Robiya bibini olib, biroz tinch va bozori gavjumroq bo‘lgan Xiva shahriga ravona bo‘ldi. Pahlavon Mahmud 1247-yilda Xiva ostonasidagi Qiyot qishlog‘ida dunyoga keladi.

Xivaliklar Pahlavon Mahmudning tug‘ilishini Shayx Najmiddin Kubro bilan bog‘lashadi. Xorazmshoh Kubroni Xivadan mamlakat poytaxti Urganch shahriga chaqirtirganda, xivaliklar undan qaytib kelishini iltimos qilishadi. Shayx xivaliklarga tez orada o‘z o‘rniga bir pir yuborishini va’da qiladi. Shundan keyin Urganchda o‘zining bir o‘rinbosari Piryorvalini chaqirtirib, - “Sen Xivaga borasan, u yerda xotining senga bir o‘g‘il tug‘ib beradi, u bizning nafas o‘g‘limiz bo‘ladi, kelajakda pahlavon bo‘lib butun Xorazmning saqllovchisi, piri bo‘lib yetishadi. Ko‘pchilik uning ismini bilmay Polvon ota deb atashadi,”- deydi.

Futuvvat-juvonmardlik tariqatining ulug‘ peshvolaridan biri, Fors tilida ijod qilgan, po‘stindo‘zlik, telpakdo‘zlik, bilan shug‘ullangan hamda fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Xayyomdan so‘ng faqa ruboiy yozgan yagona shoir Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan Pahlavon Mahmuddir. U Umar Xayyomning oddiy taqlidchisi bo‘lmay, mushohada kuchi jihatidan u bilan teng turgan.

Unga tug‘ilishidan oldin maqtovli bola bo‘lishi bashorat qilingani uchun Mahmud (ya’ni maqtalgan, yaxshi) deb ism qo‘yadilar. Mahmudning yoshlik payti ko‘chada o‘ynab yurgan paytlarida Shayx Muxtor vali Xiva ko‘chasidan eshak minib o‘tar ekanlar. Mahmud ul hazratning eshaklarining quyruqlaridan tutib olar, eshak esa joyidan qo‘zg‘ala olmas ekan. Shunda Shayx Muxtor vali “Siz juda kuchlisiz, pahlavonsiz o‘g‘lim, qo‘yib yuboring” deb yolvorar ekanlar.

Shamsidin Somiy qalamiga mansub “Qomus-ul-a’lom”, Lutf Alibek Ozar qalamiga mansub “Otashkada” asarlarida, shuningdek “Manoqiba”da keltirilishicha

Pahlavon Mahmud olim, shoir, kuragi yerga tegmagan pahlavon, shu bilan birga mohir po'stindo'z va telpakdo'z usta sifatida nom chiqargan.

U "Qitoli" – "jangchi" taxallusi bilan g'azallar yozgan. Uning "Kanz ul-haqoyiq", ("Haqiqatlar xazinasi", 1303—1304) nomli masnaviysi ham yaratilgan bo'lib, asar haligacha topilmagan. Xorazmda yozilgan qo'lyozma "Manoqiba"da shoir hayoti haqida ma'lumotlar bor. Uning vasiyatiga ko'ra, jasadi o'zining po'stindo'zlik ustaxonasiga dafn etilgan. Pahlavon Mahmudning o'z ruboiylarini fors-tojik tilida yozgan. Pahlavon Mahmudning durdona asarlari asrlardan asrga o'tib, bir necha avlodni tarbiyalab, bizning zamongacha yetib keldi.

Pahlavon Mahmud ruboiylarini o'zbek tiliga To'xtasin Jalolov, Muinzoda, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilovlar tarjima qilganlar. To'xtasin Jalolovning yozishicha, Pahlavon Mahmud ruboiylarining Muhammad Rahimxon Feruz, shuningdek Hasan Murod Qori va boshqa hattotlar tomonidan ko'chirilgan nusxalari ham bor ekan. "Hazrat Pahlavon hikoyatlari", "Manoqibi Pahlavon Mahmud" kabi risolalar alloma hayoti haqida xabar beradi.

Pahlavon Mahmud tarix maydoniga chiqqan davrning o'zi javonmardiylilikni talab qilgan davr talotoplari sinchiklabroq ko'z tashlagan odamga ma'lum bo'ladi. Bu davrda Xorazm jahoning ko'pgina mamlakatlari kabi Chingizzon qo'shinlarining qattol hujumlaridan vayron, el-ulus parokanda, eng sara farzandlar qirib tashlangan, qo'llari gul insonlar haydalib ketilgan, xalq balo-ofatlardan keyin endigma o'nglanayotgan, biroq ruhan tushkun bir holatda edi. Ana shunday og'ir sinov yillarida Xorazm o'z davrida Ollohnning inoyati bilan o'zi davo topdi, Pahlavon Mahmuddek farzandni tug'ib voyaga yetkazdi. Pahlavon Mahmud esa, o'z navbatida, javonmardiylik tariqatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu tariqatni "tayanch nuqta" qilib olib, xalq ruhidagi tushkunlikni, umidsizlikni bartaraf etish borasida ham ijodiy, ham ijtimoiy shijoat ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Suyunova, N. (2021). Pahlavon Mahmud asos solgan tariqatning ahamiyati va mazmuni . Мир исследований, 1(1).извлечено
<https://hp.jdpu.uz/index.php/journal/article/view/873>
2. H.Hodimiy Tasavvuf allomalari Sharq nashriyoti Toshkent: 2014.
3. Jalolov T. Pahlavon Mahmud- Puryoyvaliy. Toshkent: 1975.
4. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari